



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

**HARBIY XIZMATCHILARNI MODDIY RAG‘BATLANTIRISHDA QO‘SHIMCHA TO‘LOVLAR TIZIMINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI**

**ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ ВЫПЛАТ В МАТЕРИАЛЬНОМ СТИМУЛИРОВАНИИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ.**

**ЭCONOMIC AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE SYSTEM OF ADDITIONAL PAYMENTS IN THE MATERIAL INCENTIVES FOR MILITARY PERSONNEL**

**Madaminov G‘ayrat Madiyarovich**

O‘zbekiston Milliy universiteti

Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikli boshlig‘i dotsent, podpolkovnik

ORCID: 0009-0008-5391-4259

**Annotatsiya**

Maqolada harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari tahlil qilingan. Unda rag‘batlantirishning nazariy yondashuvlari, mehnat motivatsiyasiga ta’siri va kadrlar barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Shuningdek, xorijiy tajriba asosida qo‘shimcha to‘lovlar tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari hamda amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Harbiy xizmatchilar, moddiy rag‘batlantirish, qo‘shimcha to‘lovlar, iqtisodiy mexanizm, institutsional asoslar, mehnat motivatsiyasi, kadrlar barqarorligi, harbiy xizmat samaradorligi, davlat mudofaa siyosati, rag‘batlantirish tizimi.

В статье анализируются экономические и институциональные основы системы дополнительных выплат в материальном стимулировании военнослужащих. Рассмотрены теоретические подходы к стимулированию, влияние дополнительных выплат на мотивацию труда и устойчивость кадров. Также на основе зарубежного опыта определены основные направления совершенствования системы дополнительных выплат в военной сфере.

**Ключевые слова:** Военнослужащие, материальное стимулирование, дополнительные выплаты, экономический механизм, институциональные основы, мотивация труда, кадровая стабильность, эффективность военной службы, оборонная политика государства, система стимулирования.

The article analyzes the economic and institutional foundations of additional payments in the system of material incentives for military personnel. It examines theoretical approaches to incentives, their influence on labor motivation and personnel stability. Based on foreign experience, key directions for improving the additional payments system are identified.

**Keywords:** Military personnel, material incentives, additional payments, economic mechanism, institutional foundations, labor motivation, personnel stability, military service efficiency, state defense policy, incentive system.

Hozirgi global xavfsizlik muhitida davlatlarning mudofaa salohiyati va milliy xavfsizligini ta’minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Geosiyosiy raqobatning kuchayishi, harbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va xavf-xatarlarning ko‘payishi harbiy xizmat tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda. Bu jarayonda harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi, xizmatga sadoqati va mehnat samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur omillar ko‘p jihatdan rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi. Ilmiy

tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, moddiy rag‘batlantirish tizimi harbiy xizmatchilarning mehnat motivatsiyasini oshirish, kadrlar barqarorligini ta’minlash va qo‘shinlarning jangovar shayligini mustahkamlashda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada rag‘batlantirish mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa davlat sektorida, jumladan harbiy xizmat sohasida, rag‘batlantirish tizimi iqtisodiy resurslar, institutsional muhit va huquqiy normalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar muhim o‘rin tutadi. Chunki qo‘shimcha to‘lovlar xizmatning murakkabligi, xavflilik darajasi, maxsus vazifalarni bajarish, xizmat staji va kasbiy malaka kabi omillarni hisobga olgan holda belgilanib, xizmatchilar mehnatini iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlarda harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi ko‘p komponentli mexanizm sifatida shakllangan bo‘lib, unda asosiy maosh bilan bir qatorda turli qo‘shimcha to‘lovlar va ustamalar muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, qo‘shimcha to‘lovlar tizimining samaradorligi uning iqtisodiy asoslanganligi, institutsional barqarorligi va shaffof boshqaruv mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq. Shu bois harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmlarini iqtisodiy va institutsional nuqtai nazardan tadqiq qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslarini tahlil qilish, uning mehnat motivatsiyasi va xizmat samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda mazkur tizimni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Hozirgi global xavfsizlik muhitida davlatlarning mudofaa salohiyati, milliy xavfsizlik tizimining barqarorligi va qo‘shinlarning jangovar shayligi ko‘p jihatdan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi, xizmatga sadoqati hamda mehnat samaradorligiga bog‘liq hisoblanadi. Zamonaviy harbiy xizmat faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmay, balki yuqori darajadagi intellektual salohiyat, texnologik bilimlar va psixologik barqarorlikni talab etadigan murakkab kasbiy faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli harbiy xizmatchilar mehnatini rag‘batlantirish masalasi davlat mudofaa siyosatida muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi ularning mehnat samaradorligini oshirish, xizmatga sadoqatini mustahkamlash va kadrlar barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [1].

Iqtisodiy nazariyada rag‘batlantirish insonning mehnat faolligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Klassik iqtisodiy maktab vakili Adam Smit mehnat unumdorligi va iqtisodiy manfaat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslab berib, inson faoliyatida shaxsiy manfaat muhim harakatlantiruvchi kuch ekanligini ta’kidlagan [2]. Keyinchalik institutsional iqtisodiyot vakillari rag‘batlantirish mexanizmlarini iqtisodiy institutlar, qoidalar va tashkilotlar bilan bog‘liq holda tahlil qila boshladilar. Duglas Nort institutlarni iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy qoidalar tizimi sifatida ta’riflab, ular iqtisodiy faoliyat samaradorligini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [3].

Mehnat motivatsiyasiga oid tadqiqotlarda ham moddiy rag‘bat muhim o‘rin tutadi. Masalan, Frederik Gersbergning ikki omili nazariyasiga ko‘ra, ish haqi, moddiy mukofotlar va ijtimoiy kafolatlar mehnatdan qoniqish darajasiga ta’sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi [4]. Viktor Vrumning kutilmaslar nazariyasi esa insonning mehnat faolligi uning mehnat natijasi va olinadigan mukofot o‘rtasidagi bog‘liqlikni qanday baholashiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi [5]. Bu nazariy yondashuvlar harbiy xizmat sohasi uchun ham dolzarb hisoblanadi, chunki harbiy xizmat yuqori xavf-xatar va mas’uliyat bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi odatda bir nechta asosiy elementlardan iborat bo‘ladi: asosiy maosh, qo‘shimcha to‘lovlar, mukofotlar va ijtimoiy kafolatlar. Bu tizimda qo‘shimcha to‘lovlar xizmatning murakkabligi, maxsus vazifalarni bajarish, xavfli sharoitlarda xizmat qilish yoki yuqori kasbiy malaka kabi omillarni hisobga olgan holda belgilanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan qo‘shimcha to‘lovlar mehnatni differentsiatsiya qilish mexanizmi sifatida namoyon

bo‘ladi. Ya’ni yuqori malaka va maxsus tayyorgarlikka ega xizmatchilarga qo‘shimcha moliyaviy rag‘bat berilishi mehnat natijalarini adolatli taqsimlashga xizmat qiladi [6].

Qo‘shimcha to‘lovlar tizimi mehnat motivatsiyasini kuchaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy manfaat insonning mehnat faoliyatini rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli qo‘shimcha to‘lovlar harbiy xizmatchilarning xizmatga bo‘lgan qiziqishi va sadoqatini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, moliyaviy rag‘batlar mehnat samaradorligini oshirish va tashkilotlarda kadrlar barqarorligini ta’minlashda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi [7].

Rus iqtisodiy adabiyotlarida ham mehnatni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Masalan, B.M. Genkin mehnat iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida ish haqi tizimida ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar mehnat unumdorligini oshirish, mehnat natijalarini differentsiatsiya qilish va tashkilot samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini qayd etadi [8]. Shuningdek, V.A. Melnik mehnat iqtisodiyoti bo‘yicha tadqiqotlarida moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mehnat motivatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi [9].

Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimining samaradorligi institutsional muhit bilan ham uzviy bog‘liq. Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan iqtisodiy munosabatlarning samaradorligi qonunchilik, davlat siyosati va tashkiliy qoidalar bilan belgilanadi. Shu jihatdan harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimi davlat institutlari orqali tartibga solinadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarning moddiy ta’minoti va rag‘batlantirish masalalari qonunchilik va davlat qarorlari orqali tartibga solinadi [10].

Xorijiy davlatlar tajribasi ham harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, AQSh armiyasida harbiy xizmatchilarning moliyaviy ta’minoti asosiy maosh bilan bir qatorda turli qo‘shimcha to‘lovlar va imtiyozlar orqali ta’minlanadi. Bu to‘lovlar xizmat joyi, maxsus vazifalar, xavflilik darajasi va chet elda xizmat qilish kabi omillarga bog‘liq holda belgilanadi [11]. Yevropa davlatlarida ham harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimida xizmat staji, maxsus malaka va harbiy operatsiyalarda ishtirok etish uchun qo‘shimcha moliyaviy ustamalar joriy etilgan [12].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimi iqtisodiy va institutsional omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bu tizim mehnat motivatsiyasini oshirish, kadrlar barqarorligini ta’minlash va mehnat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Institutsional jihatdan esa u davlat siyosati, qonunchilik va tashkiliy qoidalar orqali tartibga solinadi.

Shu tariqa, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimi qo‘shinlarning jangovar shayligini mustahkamlash, xizmat samaradorligini oshirish va yuqori malakali harbiy kadrlarni saqlab qolishda muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur tizimni takomillashtirishda uning iqtisodiy samaradorligi, institutsional barqarorligi va xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmlarining iqtisodiy va institutsional asoslarini tahlil qilishda bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, iqtisodiy nazariya va institutsional iqtisodiyotning ilmiy yondashuvlari asosida rag‘batlantirish tizimining nazariy asoslari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Tahlil usuli orqali harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy mazmuni va uning mehnat motivatsiyasiga ta’siri o‘rganildi, sintez usuli orqali esa mazkur tizimning tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida turli davlatlar tajribasi o‘rganilib, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmlarining o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, institutsional tahlil usuli orqali rag‘batlantirish tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari, davlat siyosati va iqtisodiy mexanizmlar bilan o‘zaro bog‘liqligi baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida ilmiy manbalar, iqtisodiy nazariyalar hamda milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilinib, harbiy

xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmlarini takomillashtirishga doir xulosalar shakllantirildi.

Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimi davlat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, qo‘shinlarning jangovar shayligini ta‘minlash va harbiy kadrlar barqarorligini saqlab qolishda muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmat sharoitida mehnat faoliyati yuqori darajadagi jismoniy, intellektual va psixologik yuklama bilan bog‘liq bo‘lgani sababli rag‘batlantirish tizimi samarali va muvozanatli bo‘lishi zarur. Ayniqsa, moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmlari xizmatchilarning mehnat motivatsiyasini oshirish, xizmat natijalarini rag‘batlantirish va yuqori malakali kadrlarni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi.

**1-jadval**

**Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimining tarkibiy tuzilmasi**

<b>T/r</b>	<b>Tizim elementlari</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Iqtisodiy ahamiyati</b>
1.	Asosiy maosh	Harbiy xizmatchilarning lavozimi, unvoni va xizmat turiga qarab belgilanadigan asosiy ish haqi	Xizmatning bazaviy moliyaviy ta‘minotini ta‘minlaydi
2.	Qo‘shimcha to‘lovlar	Xizmat sharoiti, xavflilik darajasi, maxsus vazifalar yoki xizmat staji uchun to‘lanadigan ustamalar	Mehnat natijalarini differentsiatsiya qilish va motivatsiyani oshirish
3.	Ijtimoiy imtiyozlar	Uy-joy, tibbiy xizmat, ta‘lim va boshqa ijtimoiy kafolatlar	Harbiy xizmatning jozibadorligini oshirish
4.	Moddiy rag‘batlantirish tizimi	Barcha moddiy rag‘batlantirish elementlarining kompleks tizimi	Kadrlar barqarorligini ta‘minlash va xizmat samaradorligini oshirish

Tahlil natijalariga ko‘ra, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar bir nechta asosiy iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Birinchidan, ular mehnat natijalarini differentsiatsiya qilish mexanizmi hisoblanadi. Ya‘ni xizmat sharoiti, kasbiy malaka, xizmat staji va bajarilayotgan vazifalarning murakkabligiga qarab turli qo‘shimcha to‘lovlar belgilanishi xizmatchilar o‘rtasida adolatli taqsimotni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, qo‘shimcha to‘lovlar mehnat motivatsiyasini kuchaytirish orqali xizmat samaradorligini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy manfaat inson faoliyatini rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri bo‘lgani uchun, qo‘shimcha moliyaviy rag‘bat xizmatchilarning xizmatga bo‘lgan mas‘uliyati va sadoqatini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, tahlillar qo‘shimcha to‘lovlar tizimi kadrlar barqarorligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Harbiy xizmat yuqori xavf-xatar va mas‘uliyat bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, yuqori malakali kadrlarni harbiy tizimda saqlab qolish davlat uchun strategik ahamiyatga ega. Moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari, xususan qo‘shimcha to‘lovlar, xizmatchilarning kasbiy faoliyatini uzoq muddat davom ettirishga rag‘batlantiruvchi muhim iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili ham qo‘shimcha to‘lovlar tizimi samaradorligini oshirishda uning differensial va institutsional jihatdan asoslangan bo‘lishi muhimligini ko‘rsatadi. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida harbiy xizmatchilarga xizmat joyi, xavflilik darajasi, maxsus vazifalarni bajarish va kasbiy malakaga qarab turli ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar belgilanadi. Bu esa xizmatchilarning mehnat motivatsiyasini oshirish va harbiy xizmatning jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qo‘shimcha to‘lovlar tizimi samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar

T/r	Omillar	Tavsifi	Qo‘shimcha to‘lovlar tizimiga ta‘siri
1.	Xizmat sharoiti	Xavflilik darajasi, xizmat joyi va vazifalarning murakkabligi	Qo‘shimcha moliyaviy rag‘bat miqdorini belgilaydi
2.	Kasbiy malaka	Harbiy xizmatchining bilim, ko‘nikma va tayërgarlik darajasi	Yuqori malaka uchun ustama to‘lovlar belgilanadi
3.	Xizmat staji	Harbiy xizmatda ishlagan yillar soni	Uzoq muddat xizmat qilishni rag‘batlantiradi
4.	Institutsional tartibga solish	Qonunchilik, davlat siyosati va normativ hujjatlar	To‘lovlar tizimining huquqiy asoslarini belgilaydi
5.	Tizim samaradorligi	Rag‘batlantirish mexanizmining umumiy natijadorligi	Mehnat motivatsiyasi va xizmat samaradorligini oshiradi

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmining samaradorligi uning iqtisodiy asoslanganligi, institutsional barqarorligi va shaffof boshqaruv tizimi bilan bevosita bog‘liq. Agar rag‘batlantirish mexanizmlari aniq mezonlar asosida shakllantirilsa va adolatli taqsimlansa, ular xizmat samaradorligini oshirish, kadrlar barqarorligini ta‘minlash va harbiy xizmatning umumiy institutsional samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar muhim iqtisodiy va institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Mazkur tizim harbiy xizmatchilarning mehnat motivatsiyasini oshirish, xizmat samaradorligini ta‘minlash hamda kadrlar barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qo‘shimcha to‘lovlar xizmat sharoiti, kasbiy malaka, xizmat staji va bajarilayotgan vazifalarning murakkabligi kabi omillarni hisobga olgan holda mehnat natijalarini iqtisodiy jihatdan differentsiatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmining samaradorligi uning iqtisodiy asoslanganligi, huquqiy tartibga solinishi va institutsional barqarorligi bilan bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining shaffofligi, adolatli taqsimlanishi va xizmat natijalari bilan bog‘liqligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv harbiy xizmatchilarning xizmatga bo‘lgan qiziqishi va sadoqatini kuchaytirish, shuningdek harbiy xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirish tizimida qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmini iqtisodiy va institutsional jihatdan takomillashtirish davlat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, qo‘shinlarning jangovar shayligini oshirish va harbiy xizmat tizimining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2002.
2. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.

3. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Herzberg F. Work and the Nature of Man. – Cleveland: World Publishing Company, 1966.
5. Vroom V. Work and Motivation. – New York: John Wiley & Sons, 1964.
6. Lazear E. Personnel Economics. – Cambridge: MIT Press, 1995.
7. Armstrong M. A Handbook of Human Resource Management Practice. – London: Kogan Page, 2009.
8. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. – Москва: Норма, 2009.
9. Мелник В.А. Экономика труда. – Москва: Инфра-М, 2010.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy ta’minlashni takomillashtirishga oid qarorlar. – Toshkent.
11. U.S. Department of Defense. Military Compensation Background Papers: Compensation Elements and Related Manpower Cost Items. – Washington, 2018.
12. NATO. Military Pay and Benefits in NATO Countries. – Brussels, 2019.

**UDK:336.02**

## **MOLIYAVIY SIYOSAT VA IJTIMOIIY BARQARORLIK OMILLARI**

### **ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА И ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ**

#### **FISCAL POLICY AND SOCIAL STABILITY FACTORS**

**Nazirboyev Dilshunos Doniyor o‘g‘li**  
O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti talabasi

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada moliyaviy siyosat va uning vositalari hamda uning ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush darajasiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy siyosat asosiy bo‘g‘inlari sanalgan byudjet-soliq siyosati va pul-kredit siyosati kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishdagi o‘ni ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, moliyaviy siyosatning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli “tashabbusli byudjet” jarayonlarining yillar davomida ko‘rsatgan natijalari orqali keltirilgan hamda uning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliya, moliyaviy siyosat, ijtimoiy barqarorlik, fiskal siyosat, davlat byudjeti, ijtimoiy xarajatlar, soliq imtiyozlari

В данной статье анализируется финансовая политика и ее инструменты, а также ее влияние на социальную стабильность и уровень жизни населения. Рассматривается также роль бюджетно-налоговой политики и монетарной политики, являющихся основными компонентами финансовой политики, в сокращении бедности и повышении благосостояния населения. Кроме того, на основе результатов процессов «инициативного бюджета» за прошедшие годы представлена роль финансовой политики в обеспечении социальной стабильности, а также разработаны научные выводы и практические рекомендации по повышению ее эффективности.

**Ключевые слова:** финансы, финансовая политика, социальная стабильность, фискальная политика, государственный бюджет, социальные расходы, налоговые льготы.

This article analyzes financial policy and its instruments, as well as its impact on social stability and the standard of living of the population. Also, the role of budget-tax policy and monetary policy, which are the main components of financial policy, in reducing poverty and improving the well-being